

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUN, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 12-son (26-iyun, 2026-yil).– 223 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

BADIIY MATN TUZILISHIDAGI ISHORAVIY MA'NOLARNING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK TADQIQI (BEGIJON AHMEDOVNING "SAYYOH" ASARI MISOLIDA)

Kayumova Gulchexra

Namangan davlat universiteti Ilmiy tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy matndagi so'zning leksik tuzilishidagi ma'nolar va ularni yuzaga chiqish omillari, mazmuniy tuzilish bilan shakliy tuzilish o'rtasidagi nomutanosiblik, badiiy matn va uni lingvopoetik hamda lingvopragmatik tadqiqi pragmatist yozuvchi Begijon Ahmedovning "Sayyoh" qissasi misolida ochib berildi.

Kalit so'zlar: pragmalingvistika, antropotsentrik nazariya, kognitiv tahlil, lisoniy kompetensiya.

LINGUOPOETICAL AND LINGUOPRAGMATIC RESEARCH OF SYMBOLICAL MEANING IN THE STRUCTURE OF AN ARTISTIC TEXT (ON THE EXAMPLE OF BEGIJON AHMEDOV'S WORK "THE TRAVELER")

Kayumova Gulchekhra

Scientific Researcher, Namangan State University

Annotation. In this article, the meaning of lexical structure of the word and its emerging factors, the discrepancy between the content structure and form, the literary text and its linguistic research are illustrated by the pragmatic writer Begijon Ahmedov's "Sayyoh".

Keywords: pragmatic linguistics, theory of anthropocentric, cognitive analysis, linguistic competence.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i12/n19>

Tilshunoslik tarixiga nazar tashlasak, o'tgan asrning 70-yillarigacha bo'lgan davr empirik bosqich ekanligi (yani, material to'planib, analiz qilingan davr) ko'zga tashlansa, 80-yillardan 2010-yillargacha bo'lgan davrda tilshunoslik nazariy bilish bosqichi (bu davrda barcha to'plangan materiallar sintez qilindi va makro va mikro sistema sifatida umumlashtirish amalga oshirildi)ga o'tdi. 2010-yillardan hozirgacha bo'lgan davr esa metanazariy bosqich hisoblanmokda. Hozir mikro va makrosistemalar o'ziga xos munosabatdorlikdagi aloqalari asosida tadqiq qilinmoqda. Ayniksa, ko'pparadigmalilik metodi asosida tilshunoslikdagi barcha yo'nalishlarni bir uchga birlashtirish zaruriyati kuchayadi. Natijada barcha tilshunoslar e'tirof etayotgan antropolingvistika nomli yakka bir uch, makro sistema yuzaga keldi. Antropolingvistikaning makro sistema bo'lishiga bosh sabab – inson -olam –til modeli asosida tilni tadqiq etishdir. Chunki tilning barcha yo'nalishlari tadqiqida bosh omil inson omilidir. Shuning uchun tilni inson omili, tafakkuri, ongi, yashash tarzi, urf-odati, millati, milliy qadriyatlarini makonidan ayro holda tadqiq etib bo'lmasligi tushunib yetildi. Natijada antropotsentrik nazariya paydo bo'ldi. Bu nazariya asosida antropolingvistika rivojlanmoqda. Shuning uchun tilshunoslik hozirgi kunda o'rganilgan, tadqiq etilgan yo'nalishlarni qayta tekshirish, qayta baholash tizimiga o'tdi. Unikaliyalar, universalialar o'zaro munosabatdorlikda o'rganila boshlandi.

Hozirgi kunda aynan antropolingvistikaning yo'nalishlari deb e'tirof etilayotgan lingvopoetika va lingvopragmatika dolzarb masalalar bilan shug'ullanib, ayrim chalkashliklarga oydinlik kiritmoqda.

Shu nuqtai nazardan o'zbek tilshunosligining hozirgi kungi holati uchun muhim metodologik tamoyil poliparadigmatiklikning mavjudligidir. Chunki tilga antropotsentrik yondashuv asosida pragmatik, psixolingvistik, sotsiolingvistik, lingvokulturologik, lingvogermevtik, lingvokognitiv paradigmalar yuzaga keldi, bu tilshunoslikda turli talqinlarni o'rta tashladi. Ayniqsa, matn bilan bog'liq tadqiqotlarda yangi-yangi qarashlarning paydo bo'lishiga asos bo'ldi.

Fanda matn tushunish turlicha bo'lib, ularni semantik va lingvistik yondashuv asosida talqin etish matnning ko'p qirralarini ochilishida eng maqbul omil hisoblandi.


Semiotik jihatdan matn har qanday belgilar ketma-ketligidan tashkil topgan butunlik (ilmiy, badiiy, publitsistik, musiqiy, rassomchilik asarlari, me'morchilik obidalari, naqshlar, haykallar bo'lishi mumkin), lingvistikada esa verbal vositalar bilan ifodalangan butunlik hisoblanadi.

Shuning uchun matn ham semiotik, ham lingvistik jihatdan tadqiq etishda inson omili markaziy o'rinni egallaydi va o'z-o'zidan ob'ektiv qonuniyat sifatida pragmatik tadqiq etish zaruriyati paydo bo'ladi.

Matn lingvistikasining shakllanishi va uning o'ziga hos qirralari tahlili 80-yillardan hozirgi kungacha davom etmoqda.

Hususan badiiy matn tadqiqi hozirgi davr tilshunosligida lingvopoetik va lingvopragmatik tahlil qilish asosida olib borilmoqda. Badiiy matn tadqiqida uch asosiy elementga e'tibor berish zarur. Ular inson, olam, til. Inson murakkab tushuncha bo'lib, bu tushuncha ostida, ayniqsa, badiiy matnda badiiy matn yaratuvchi shoir yoki yozuvchi, badiiy matn o'qiyotgan o'quvchi yoki tinglovchi tushuniladi.

Shoir yoki yozuvchi va o'quvchi yoki tinglovchi o'rtasidagi kommunikativ aloqani tiklovchi kanal badiiy matn yoki matndagi verbal yoki noverbal vositalardir.



Badiiy matn shoir yoki yozuvchining umumiy bilish xazinasidagi bilimlari, pragmatik ongi, dunyoqarashi, millati, yashash tarzi, yashash muhiti, yoshi, jinsi, kasb-kori kabi qirralariga mos holda shakllanadi. Shuning uchun har kanday matnda shoir yoki yozuvchining g'oyalari talqin etiladi. Bu talqinni tushunish uchun o'quvchida kognitiv tafakkur shakllangan bo'lishi kerak.

Matn yaratuvchi va o'quvchi o'rtasidagi botiniy munosabatdorlik yuzaga keladi. Botiniy munosabatdorlikning qaysi darajadagi jips aloqasi, bir-birini tushunishi aloqa kanali bo'lgan matn orqali amalga oshadi va bir-birini anglash esa pragmatik tafakkur orqali yuzaga chiqadi.

Insonlarning pragmatik tafakkuri bir hil emas. Shu sababli ko'pchilik badiiy matndagi ishoraviy ma'nolarni anglamay qolishi mumkin. Yoki zohiriy ma'noni tushunib, botiniy ma'noni tushunmasligi mumkin.

M: Zolim senga zulm qilsa,
 Olloh degil, olloh degil.
 (Ahmad Yassaviy)

Ushbu baytdagi "zolim" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "Zulumkor", "mustabid", "rahm-shavqat bilmaydigan", "berahim" kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Agar zohiriy ma'noda tushunsak, yuqoridagi ma'nolarni anglaymiz. Lekin uning botiniy jihatdan tushunsak shoir "Zolim" so'zi orqali "Nafs"ni ifodalaganligini anglab yetamiz. Demak, badiiy matnning shakl va mazmun tuzilishida nomutanosiblik mavjud bo'lar ekan. Bunday nomutanosiblikni lingvistik va poetik kompetensiyaga ega bo'lgan insonlar yaxshi ilg'ab oladi.

Badiiy matnda ko'p qavatli ma'nolar sil-silasi yashiringan bo'ladi. Bunday botiniy ma'nolarni o'rganuvchi tilshunoslikdagi yo'nalish pragmatika yoki lingvopragmatika deb nomlanadi va kognitiv tadqiq yo'lidan boradi.

Hozirgi kunda ko'plab ijodkorlar yaratgan badiiy matnlarni kognitiv tadqiq etish kuchaydi. Natijada ijodkorlarning ham badiiy, ham poetik, ham lingvistik qirralariga baho berilmoqda. Serqirra ijodkorlar talaygina. Shunday ijodkorlardan biri pragmatist yozuvchi Begijon Ahmedov o'zining "Sayyoh" asarida inson tafakkurining ikkinchi qatlamiga ta'sir etuvchi ma'nolar marjonini tuzganki, uni tushunib, anglab yetgan inson pragmatik jihatdan bezanadi. Yozuvchi o'z asarlarida shunday so'zlarni qo'llaydiki, ularning ma'no tuzilishidagi semalari orqali yuzaga kelgan nutqiy sinonimlar (hozirgi tilshunoslikda pragmatik sinonimiya deb atalmoqda) matning ko'p qavatli mazmundorligini kuchaytiradi.

M.: – Men seni bekorga "yomon bolasan", demaymenda! ishqilib, yaxshi bo'lib, qaytgin. Ayiqlaringa salom ayt, bizdan. "Hayotga" qachon qaytasan innaykeyin? (Begijon Ahmedov. Sayyoh. 14-bet).

Ushbu matnda "yomon bolasan", "Hayotga" kabi so'zlar orqali pragmatik ma'no yuzaga kelgan.

Chunki "Yomon bola" so'zida zohiriy jihatdan qiliqlari yaxshi bo'lmagan bola tushuniladi va "Yaxshi bola" ga antonomik munosabatni anglatadi. Yozuvchi ustalik bilan bu so'zning botiniy ma'nosiga ishora qiladiki, natijada "Yomon bola" birikmasi, "Yaxshi bola" birikmasiga sinonim bo'lib qoladi. Bu esa tilshunoslikda pragmatik sinonimiya deyiladi. Xuddi shuningdek, "Hayotga" so'zining qo'llanilishida ham kognitiv tamoyil yuzaga kelib, bu so'zning pragmatik ma'nosi namoyon bo'ladi.

"Hayotga qaytmoq" birikmasining zohiriy ma'nosi kasal bo'lib, o'lim to'shagida yotgan insonni tuzalib qolishini anglatadi.

Yozuvchi bu birikmaning pragmatik ma'nosidan mohirona foydalanib, Anvarning otasi tilidan "Hayotga" qachon qaytasan? Birikmasi orqali "Hozirda yashayotgan hayoti hayot emasligini" ifodalab, pragmatik sinonimiyani yuzaga keltirmoqda. Yozuvchi botiniy pragmatik ma'nosiga e'tiborni qaratadi va insonni o'ylashga, tafakkur qilishga undaydi.

Yozuvchi har bir so'zning ma'no semalariga sinchkovlik bilan e'tibor beradi. Har bir so'zni "porchinlab", shu so'zdan boshqa so'zni qo'llab bo'lmasligiga ishora qiladi:

- Bir o'zingiz bu baland tog'larda qanday yurasiz ?
- Birinchidan, bu sening ishing emas,- dedi cho'rt kesib Anvar. – Ikkinchidan yurasiz emas, qanday yashaysiz? deb so'rasang to'g'riroq bo'lardi, o'qimagan?

Ko'rinib turibdiki "yurasiz" va "yashaysiz" so'zlarining ma'no strukturasi, ya'ni semalarida o'ziga xos mazmuniy nomutanosiblik mavjudligini yozuvchi ilg'agan va "yashaysiz" so'zida mazmundorlik kuchli bo'lganligi uchun shu so'zdan foydalanishni ma'qul topgan. ("Sayyoh" 17-bet).

Yozuvchi falsafiy mushohadasini ham muayyan pragmatik qobiqqa o'rab, "Kosa tagida nim kosa" tamoyili asosida ifodalaydi: ... quyosh yaratgan zimmasiga ortgan vazifasini ado etar ekan, nimadandir uyalganday qizargan holda bota boshladi. Balki u yer yuzasidagi ongli

maxluqlarni qilgan gunohlarini, yashash tarzini ko'rib uyalgandir? Mavlono Rumiylarning xazratlari (boshqalar aybini berkitishda tun kabi bo'l) deganlarida inson qalbini tarbiyalash barobarida kun va tun hikmatini ochib bergan bo'lsalar ne ajab. ("Sayyoh" 20-bet).

Ushbu matnda "Kun" va "Tun" so'zlarini kontrast qo'llash orqali pragmatik ma'zmun hosil qilingan. Kun yorug'lik, ochiqlik kabi konnotativ ma'no va sutkaning bir qismi – kunduzi kabi leksik ma'no ifodalaydi.

Tun – qorong'ulik, zulmat kabi konnotativ ma'no va sutkaning bir qismi, kechasi kabi leksik ma'no anglatadi.

Yozuvchi "Tun" so'zning pragmatik ma'noda qo'llab, ijobiy ma'nodagi mazmuni yuklaydi. Turli hil gunoh ishlarni yashiruvchi, parda tarzidagi pragmatik ma'noga moslashtiradi. Quyosh nurini birday, teng sochishini tasvirlar ekan, Mavlono Ogahiyning

"Ey shoh, qaram aylar chog'i teng tut yomonu yaxshini,
Kim mehr nuri teng tushar vayronu obod ustina"
baytini esga soladi.

Bunday kognitiv ishorlar "Sayyoh" qissasida xilma-xil va rang-barang hamda turli pragmatik ma'nolarga boy.

"Odam bo'yi yoqqan qor hali beri erishni hayoliga keltira olmas, ona zamin bag'rida ko'tarilib chiqqan tog'u toshlar tizmasi 20 daraja sovuqda rohat olib yastanib yotar edi" (Sayyoh 5-bet) gaplarida fikrlar oppozitsiyasi orqali o'ziga xos tasvir yasaydi. Qorning qalinligi, 20 daraja sovuqda aslida "Dildirab", "Sovqatib" qolishi kerak edi, lekin yozuvchi "Sovuqdan rohat olib yastanib yotar edi" kabi ijobiy mazmun hosil qilgan va o'quvchini mantiqiy fikrlashga undaydi.

Yozuvchi o'quvchini pragmatik fikrlashga chorlaydi. Matn orqali ifodalanayotgan tagma'nolarni tushunishga yo'l ochadi va poetik muvoffaqiyatga erishadi. Natijada lingvopoetik talqinlar yuzaga keladi:

"Subuday darasida quyosh ufqqa bosh qo'ygach, uning o'rnini kattakon oy egallab, makon uzra hukmronlikni o'z qo'lga oldi". (27-bet) matnida ham pragmatik ishoraviy ma'nolar mavjudki, uni anglash uchun o'quvchi kognitiv tafakkurini ishga soladi va shakliy jihatdan ifodalanmagan mazmunning mohiyatini tushunib yetadi. "Kattakon oy" birikmasi orqali o'zining 15-kunlik bo'lganligini, "Hukmronlikni qo'lga oldi" birikmasi orqali yaratgan tomonidan yer yuziga quyosh va o'zining hukmron qilib yuborganligini anglab yetadi.

Yozuvchi pragmatik sinonimlardan o'ta ustalik bilan foydalanadi. Matnning estetik ta'sir quvvatini oshiradi: "Xitoy falsafasi maktabi namoyondalarining kitoblarini simirib "ichar"edi" (31-bet).

"O'qimok" so'ziga "ichmoq" so'zini sinonim qilib ko'yadi. "Ko'rinib turibdiki, "o'qimok" so'zi bilan "ichmoq" so'zi leksik jihatdan sinonimik qatorini tashkil etmaydi. Lekin pragmatik jihatdan mazmuniy tuzilishidagi konnotativ ma'nolari orqali sinonimik qatorga birlashmoqda. Bu esa yozuvchining lingvistik kompetensiyasi yuqori ekanligidan dalolatdir.

Yozuvchining lingvistik kompetensiyasi baland ekanligini quyidagi matnda yana ham oydinlashadi:

"Maktabni ona tilida bitirgan bo'lsa ham, institut va aspiranturalarda doimo rus tilida ma'ruzalar eshitib, suhbatlashgani, kitoblarni faqat rus tilida o'qigani sabab mana shu tilda fikrlaydigan rusiyzabon kishilar qatorini to'liqlagan edi".

Ko'rinib turibdiki, inson biror-bir tilni mukammal bilishi uchun o'sha tilda fikrlaydigan bo'lishi kerak.

Til kompetentligini yozuvchi fikrlash bilan bog'laydi va ikki tillilikning ob'ektiv asosini ko'rsatadi.

Yozuvchi mantiqiy va nutqiy ma'nolarni o'zaro mosligidan "dengizchilar", "Nadomat ummoni", "ekzistensial", "trassedent", "Algoritm" kabi so'zlarning pragmatik sinonimlar sifatida qo'llaydi. "Dengizchilar" so'zini maishatparast, aroqxo'r kabi so'zlar o'rnida ishlatib, o'ziga hos sinonimik qator tuzadi.

Asarni o'qir ekanmiz, unda ulkan ilmlar (tarix, etnografiya, geologiya, biologiya, kimyo, zoologiya, botanika, arxeologiya, psixologiya, adabiyot, geografiya...), betakror ishoralar, nozik ma'nolar ummoniga o'xshashligini xis qilamiz. Bu ummon bag'rida juda ko'p ma'noli boylik yashiringan, bunday ma'noli boylikni tanib, undan baxramand bo'lish uchun hazrat Navoiy aytganiday "G'avvos" bo'lishimiz kerak.

Begijon Ahmedovning "Sayyoh" qissasidagi ilmiy va badiiy mazmunni shunchaki, o'qish bilan uqib bo'lmaydi. Unga maxsus tayyorlanish kerak. Biz faqat pragmatik ma'nolar marjoni haqida fikr bildirdik, holos. Asarni hali ko'p jihatlarini antropotsentrik nazariya asosida paradigma va maydon butunliklarini ajratish tamoyili asosida o'rganilsa, tilshunosligimiz uchun qimmatli materiallarni beradi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Ахмедов Бегижон. Сайёҳ. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021.
2. Маҳмудов Низомиддин. Тил ва мулоқот. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
3. Маҳмудов Низомиддин. Ўзбек тили прагматикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013.
4. Йўлдошев Баҳодир. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2009.
5. Йўлдошев Баҳодир. Матн лингвистикаси ва лингвопоэтика асослари. – Тошкент: Фан, 2016.
6. Ҳакимов Муҳаммаджон. Ўзбек тилида матннинг прагматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2014.
7. Сафаров Шаҳриёр. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
8. Сафаров Шаҳриёр. Лингвистик прагматика. – Тошкент: Академнашр, 2019.
9. Арнольд Ирина Владимировна. Стилистика современного английского языка. – Москва: Флинта, 2002.
10. Гальперин Илья Романович. Текст как объект лингвистического исследования. – Москва: Наука, 1981.
11. Лотман Юрий Михайлович. Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970.
12. Бахтин Михаил Михайлович. Эстетика словесного творчества. – Москва: Искусство, 1979.
13. Якобсон Роман Осипович. Лингвистика и поэтика // Структурализм: «за» и «против». – Москва, 1975.
14. Austin J. L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962.
15. Searle John R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.

16. Grice H. Paul. Studies in the Way of Words. – Cambridge: Harvard University Press, 1989.
17. Leech Geoffrey. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983.
18. Mey Jacob L.. Pragmatics: An Introduction. – Oxford: Blackwell, 2001.
19. Eco Umberto. A Theory of Semiotics. – Bloomington: Indiana University Press, 1976.
20. Pierce Charles Sanders. Collected Papers of Charles Sanders Peirce. – Cambridge: Harvard University Press, 1931–1958.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, 26-iyun

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 12-son (iyun, 2026-yil). – 223 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyun.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.